

Hassa

(Hikoya)

Qobil boboning ikki nabirasi Shavkat bilan Shuhrat qo'shni xonada o'ynab o'tirishar edi. Nima bo'ldi-yu, ikkovlari bahslashib qolishdi. Shavkat yugurib bobosining oldiga chiqdi-da: – Bobo, bobo! Kim odobli, menmi yoki Shuhratmi? – deb so'radi.

Qobil bobo hovliga chiqmoqchi bo'lib turgan edi. Uning kumush halqa qadalgan hassasi Shavkat bilan Shuhrat o'ynab o'tirgan uyda edi. – O'g'lim, avval mening hassamni keltirib ber, keyin men o'ylab javob beraman, – dedi nabirasiga. – Yo'q, avval aytasiz! – oyoqlari bilan yerni tepib turib oldi Shavkat. – Axir, o'ylab ko'rish kerak-da, – dedi Qobil bobo. – Unda hassangizni keltirib bermayman, – Shavkat qaysarlik bilan polga o'tirib oldi. – Keltirib bermayman. Qobil bobo hassasini keltirish uchun o'rnidan endigina qo'zg'algan edi, shu payt xonaga, bobosiga salom berib Shuhrat kirib keldi. – O'g'lim, hassamni keltirib ber! – dedi Shuhratga bobosi. – Xo'p bo'ladi, bobojon! – dedi Shuhrat bobosiga ochiq yuz bilan. U kumush halqa qadalgan hassani darrov keltirib bobosiga berdi. Keyin o'rnidan turayotgan bobosining qo'lidan ushlab, turishiga yordamlashdi. – Rahmat o'g'lim, – dedi Qobil bobo nabirasining peshonasini silab, – umring uzoq bo'lsin! – Bobo, kim odobli? Menmi yoki Shuhratmi, ayting, ayting! – der edi Shavkat yer tepib. Qobil bobo kumush halqali hassasini do'qillatganicha hovliga chiqarkan: – Shuhrat odobli! – deb javob qildi.

Xudoyberdi TO`XTABOYEV